

**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS****INKLYUZIV TA'LIMDAN INKLYUZIV JAMIYATGA****Xoliqov Azamat Qahramonovich**

Qarshi shahridagi Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

azamatxolikov8282@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Inklyuziv ta'larning jamiyat uchun qanchalik muhum ekanligi va har bir inson uchun teng imkoniyatlar yaratuvchi ta'lim tizimining ahamiyati haqida so'z yurutiladi.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat, diskriminatsiya, mahsus infrastruktura, maqsad, vazifa.*

Biz yashab turgan dunyo global o'zgarishlariga boy, axborot texnologiyalari rivojlangan, inson huquqlari takomillashgan davr desak mubolag'a bo'lmaydi. Insonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlari ta'minlanish jarayonida unga bo'lgan e'tibor, hurmat so'nggi vaqtarda tilimizda inklyuziv so'zi tobora tez-tez esga olib kelinmoqda. Inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat, inklyuziv hayot ushbu so'zlar tushunchasi ilmiy matbuotda tez-tez eshitilmoqda. Avvalambor biz so'z yurutadigan mavzuda inklyuziv jamiyat, inklyuziv ta'lim bu nima ekanligini izohlashimiz zarurdir. Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni sog'lom bolalar bilan bir xil sharoitda, bir xil imkoniyatda ta'lim olishi va ularni tarbiyalanishini tushunsak, Inklyuziv jamiyat esa jamiyat a'zolarining to'laqonli jamiyat sharoitidan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy imkoniyatlardan teng huquqli foydalanishini tushunamiz.

Biz inklyuziv ta'limga o'tishdan avval jamiyatni inkyuziv muhtini moslashtirshimiz zarur bo'ladi. Inklyuziv jamiyat bu inklyuziv ta'limga uyg'un tendensiyaviy bog'liq faoliyat hisoblanadi. Inklyuziv jamiyat nima? Inklyuziv jamiyat bu- imkoniyati cheklangan shaxslarni jamiyat a'zolari bilan teng huquqli, to'laqonli hayot kechirishini tushunamiz. Inklyuziv jamiyatda hech qanday tuzim bo'lishi mumkin emas. Ya'ni nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyat faoliyati hayotida hech qanday to'siqlarsiz foydalanishi va ijtimoiy moslashuvi, adaptatsion jarayonlarga to'laqonli qo'shilishi zarur hisob bo'ladi. Bunda nogiron shaxsning erkin harakatlanishi, erkin yurishi va ijtimoiy muloqotga kirishish jarayonida hech qanday diskriminatsion jarayonlar ro'y bermasligi kerak.

Har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqligini ta'minlash har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga xizmat qiladigan inklyuziv ta'lim tushunchasi ham qonuniy kuchga kiritilishi uzoq kutilgan yangiliklardan biri hisoblanadi.

Shular nazarda tutilgan holda hozirgi kunda birlashtirilgan –inklyuziv davlat siyosati darajasida ko'rilmoxda. Birlashtirilgan ta'limga o'tish jarayoni uchun quyidagilar amalga oshirilishi talab etiladi:



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- Ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosabatlarning o'zgarishi;
- Oilaning bunga tayyor bo'lishi;
- maxsus maktab ta'limida bolalarning o'qitilish vaqtini qisqartirilib bolalar boshlang'ich bosqichda reabilitatsiya bo'lishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratilishi;
- maxsus maktab ta'limi sohasi malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi, korreksiya va reabilitatsiya jarayonini sifatli va tezkor amalga oshirilishi uchun zarur jixozlar bilan ta'minlanishi;
- maxsus maktab ta'limi va oila hamkorligiga erishish, oilaning reabilitatsiya jarayonida faol bo'lishiga erishish (qo'shimcha uyda shug'ullanish, repititor, maxsus psixolog maslahati orqali).

Umumta'lim maktablarni birgalikdagi–inklyuziv ta'limga tayyorlash:

- Maxsus infrastruktura yaratish;
- Maxsus mutaxassislar bilan ta'minlash;

Ehtiyojlarga mos texnik va o'quv moslamalari bilan ta'minlash (maxsus lampalar, eshitish apparatlari, Brayl moslama komplekti, aravachalar uchun maxsus partalar va h.k.)¹⁷

Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashdirildi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlari ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qi tishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barcha ga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'lim ning o'ziga xos muhim jihatni shundaki, bolalar va o'qituvchi bir birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda xal etishadi.

Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bola da ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir.

¹⁷ QODIROVA FERUZAXON USMANOVNA INKLYUZIV TA'LIM: nazariya va amaliyot CHIRCHIQ 2022 17-b.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishslash imkoniyati orqali yuzaga keladi;

- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;
- O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar;
- Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;
- Ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish – inson parvarlik hissi tarbiyalanadi;
- O'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi
- Yoramga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar;

Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari kun sayin ko'payib va takomillashib bormoqda.¹⁸

Insonni nuqsonlarini uning jismoniy kamchiliklarni kamsitish, unga nisbatan turli xil ijtimoiy holatlarga keltirish jarayoni tez-tez uchrab turadi. Biz qachonki jamiyatga to'laqonlik o'tsakgina inklyuziv ta'limga bosqichma-bosqich o'ta olamiz. Shunday ekan insonlar ruhiyati faoliyatini o'zgartirishimiz zarurdir. Buning uchun inklyuziv jamiyat va ta'limni uyg'un amalga oshirishimiz shart. Inklyuziv ta'lim orqali insonlarning ruhiyatini, ularning dunyo qarash tushunchasini tizimli o'zgartirish mumkindir. Inklyuziv jamiyat qurish uchun inklyuziv ta'limni takomillashtirish asnosida butun jamiyat a'zolarining nogironlarga bo'lgan tushunchasini, ularga bo'lgan qarashini o'zgartirish mumkin. Shundagina biz tizimli faoliyatni amalga oshirsakgina muvaffaqiyatga erishamiz. Qachonki biz inklyuziv jamiyatni to'laqonli faoliyatini tizimli tashkil etsakgina, inklyuziv ta'limni ham yo'lga qo'yamiz.

Xulosa qilib aytganda biz yashab turgan jamiyatda jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslarning jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lib hayot kechirishi, umr o'tkazishi va sog'lom odamlar bilan bir xil hayotda uz maqsadlarini, vazifalarni bajarishi bu inklyuziv jamiyatning tayanchi hisoblanadi.

Shundagina har bir insonning maqsadi, baxtli hayot kechirishi, uning faoliyati muvaffaqiyatli bo'ladi. Biz mana shundagina har bir insonni to'laqonli inklyuziv jamiyat asosida hisoblay olamiz.

¹⁸ N.B.GOPOVA INLYUZIV TA'LIM. GOSPITAL PEDAGOGIKA NAMANGAN- 2024 87-88-b.



European science international conference:

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. QODIROVA FERUZAXON USMANOVNA INKLYUZIV TA'LIM: nazariya va amaliyot CHIRCHIQ 2022

2. N.B.GOPOVA INLYUZIV TA'LIM. GOSPITAL PEDAGOGIKA NAMANGAN- 2024

